

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4 (2)

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor
Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Turov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)
Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. _____

Kalit so'zlar: _____

Abstract. _____

Keywords: _____

Аннотация. _____

Ключевые слова: _____

Annotatsiya. _____

Kalit so'zlar: _____

Аннотация. _____

Ключевые слова: _____

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	16
PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAJRIBASI VA UNING QIYOSIY TAHLILI	25
Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODELİ: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	30
Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	36
Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	42
Xasanov Sardor Xazratkulovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	50
Odinayev Ravzatullo Asatulloevich	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI	55
Axmedov Xasanjon Muxamadovich	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI	60
Hayitov Jamshid Xolboyevich	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI	65
Ortiqov Husan Usmonaliyevich	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	70
Xamidova Zarifa Urol qizi	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	74
Ismailova Shaxnoza Uktamovna	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI	79
Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich	



XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI



Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich
Qoraqalpoq davlat universiteti
“Menejment va iqtisodiyot asoslari” kafedrası professori
v.b., PhD
Email: dadil1509@mail.ru
ORCID: 0000-0001-7320-0802
UDK 338.46:330.59(575.1)

Annotatsiya. Ushbu maqolada xizmatlar sektori rivojlanishining kambag'allikka ta'sirini baholash metodologiyasi va ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan. Tadqiqotda xizmatlar sektori va kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlik ko'p omilli, ko'p darajali va tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Nazariy asos sifatida inson kapitali nazariyasi hamda Amartya Senning “imkoniyatlar yondashuvi” qo'llanilgan bo'lib, unda kambag'allik daromad yetishmovchiligi emas, balki inson imkoniyatlarining cheklanganligi sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: xizmatlar sektori, kambag'allik, imkoniyatlar nazariyasi, inson kapitali, ekonometrik model, panel ma'lumotlar, xizmatlar mavjudligi indeksi, moliyaviy inklyuziya, bandlik, hududiy rivojlanish.

Abstract. This paper develops a comprehensive methodology and system of indicators for assessing the impact of service sector development on poverty reduction. The study is based on a multifactor, multilevel, and systemic approach to analyzing the relationship between the service sector and poverty. The theoretical framework relies on human capital theory and the capability approach proposed by Amartya Sen, which interprets poverty not merely as income deprivation but as a lack of opportunities and capabilities.

Keywords: service sector, poverty, capability approach, human capital, econometric modeling, panel data, service accessibility index, financial inclusion, employment, regional development.

Аннотация. В данной статье разработана методология и система показателей оценки влияния развития сферы услуг на уровень бедности. Исследование основано на многофакторном, многоуровневом и системном подходе к анализу взаимосвязи между сферой услуг и бедностью. Теоретической основой выступают теория человеческого капитала и «подход возможностей» Amartya Sen, в рамках которого бедность рассматривается не только как недостаток доходов, но и как ограниченность возможностей человека.

Ключевые слова: сфера услуг, бедность, подход возможностей, человеческий капитал, эконометрическое моделирование, панельные данные, индекс доступности услуг, финансовая инклюзия, занятость, региональное развитие.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiy tizimda xizmatlar sektori iqtisodiy o'sishning eng muhim drayverlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlarda yalpi ichki mahsulot tarkibida xizmatlar sektorining ulushi 60–70 foizdan yuqori bo'lib, u nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirish, balki aholi bandligini ta'minlash va turmush darajasini yaxshilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Rivojlanayotgan



mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekiston va uning hududlari uchun ham xizmatlar sektorini rivojlantirish kambag‘allikni qisqartirishning muhim strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi xizmatlar sektori rivojlanishining kambag‘allikka ta‘sirini kompleks baholash metodologiyasini ishlab chiqish hamda tegishli ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun tadqiqotda nazariy tahlil, statistik usullar va ekonometrik modellashtirish metodlari qo‘llaniladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmatlar sektori va kambag‘allik o‘rtasidagi bog‘liqlik iqtisodiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan. An‘anaviy yondashuvlarda kambag‘allik daromad yetishmovchiligi sifatida talqin etilgan bo‘lsa, zamonaviy nazariyalarda, xususan Amartya Sen tomonidan ilgari surilgan “imkoniyatlar yondashuvi”da u inson imkoniyatlarining cheklanganligi sifatida izohlanadi. Bu yondashuv xizmatlar (ta‘lim, sog‘liq, moliya) rolini yanada oshiradi.

Inson kapitali nazariyasi vakillari Gary Becker va Theodore Schultz ta‘lim va sog‘liq xizmatlari iqtisodiy o‘shish hamda daromad oshishining muhim omili ekanligini asoslab bergan.

Xalqaro tashkilotlar, jumladan World Bank va United Nations Development Programme tadqiqotlarida xizmatlar sektori bandlikni oshirish, kichik biznesni rivojlantirish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirish orqali kambag‘allikni kamaytirishda muhim rol o‘ynashi ta‘kidlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot xizmatlar sektori rivojlanishining kambag‘allikka ta‘sirini baholash uchun kompleks yondashuvga asoslanadi. Nazariy asos sifatida Amartya Senning imkoniyatlar yondashuvi va inson kapitali nazariyasi qo‘llaniladi.

Tahlilda statistik va ekonometrik usullar (panel ma‘lumotlar asosida) ishlatiladi. Modelda kambag‘allik darajasi bog‘liq o‘zgaruvchi, xizmatlar sektori ko‘rsatkichlari esa asosiy tushuntiruvchi omillar sifatida olinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda kambag‘allik faqat daromad yetishmovchiligi emas, balki insonning asosiy ehtiyojlarini qondira olmasligi bilan tavsiflanadi. Ushbu tadqiqot quyidagi nazariyalarga tayanadi:

Amartya Senning “imkoniyatlar nazariyasi”;

inson kapitali nazariyasi;

institutsonal iqtisodiyot doirasida rivojlangan.

Asosiy g‘oya: xizmatlar sektori rivojlanishi → bandlik + daromad + imkoniyatlar → kambag‘allik kamayishi

Amartya Sen tomonidan ishlab chiqilgan “imkoniyatlar yondashuvi” iqtisodiy tahlilga quyidagi yangiliklarni olib kirdi:

farovonlikni baholashda daromad ko‘rsatkichlaridan voz kechish;

insonning real hayot imkoniyatlarini markazga qo‘yish;

ijtimoiy tengsizlikni imkoniyatlar orqali tahlil qilish.

Bu yondashuv iqtisodiyotni faqat ishlab chiqarish va iste‘mol bilan cheklamay, balki inson hayotining sifat jihatlarini ham qamrab oladi.

Amartya Senning ilmiy merosi xizmatlar sektori va kambag‘allik o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan:

xizmatlar sektori (ta‘lim, sog‘liq, moliya) → imkoniyatlarni kengaytiradi;

imkoniyatlar kengayishi → kambag‘allikni kamaytiradi.

Shu bois, uning yondashuvi asosida kambag‘allikni daromad emas, balki imkoniyatlar yetishmovchiligi sifatida baholash ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval. Amartya Senning “Imkoniyatlar nazariyasi”ning asosiy qoidalari¹

№	Nazariy element	Mazmuni	Asosiy g‘oya	Amaliy misollar
1	Imkoniyatlar va funksonalliklar	Funksonalliklar – inson-ning real holati (sog‘lom, bilimli, to‘q). Imkoniyatlar esa shu holatlarga erishish uchun mavjud variantlar majmui	Imkoniyatlar – tanlash erkinligi, funksonalliklar – natija	Ta‘lim olish imkoniyati → bilimli bo‘lish

1 Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



2	Erkinlikka e'tibor	Rivojlanish inson erkinligini kengaytirish orqali amalga oshadi	Asosiy maqsad – insonning o'zi istagan hayot tarzini tan-lash imkoniyatini oshirish	Ish tanlash erkinligi, ta'lim yo'nalishini mustaqil tanlash
3	Utilitarizmga tanqid	Daromad yoki foyda farovonlikni to'liq ifodalamaydi	Resurslar ≠ imkoniyatlar (hamma uchun teng emas)	Bir xil daromadga ega ikki shaxs: nogiron va sog'lom – imkoniyatlari turlicha
4	Individual farqlarni hisobga olish	Insonlar resurslardan foydalanishda turlicha imkoniyatlarga ega	Ijtimoiy va biologik omillar muhim rol o'ynaydi	Yosh, sog'liq holati, yashash hududi imkoniyatlarni belgilaydi
5	Kambag'allikni talqin qilish	Kambag'allik – bu imkoniyatlardan mahrumlik	Daromad pastligi emas, balki imkoniyatlar cheklanganligi muhim	Ta'lim va tibbiy xizmatlardan foydalana olmaslik
6	Ko'p o'lchovli farovonlik	Farovonlik faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy va institutsional omillarga bog'liq	Kompleks yondashuv zarur	Ta'lim, sog'liq, yashash sharoiti birgalikda baholanadi

Mazkur jadval Amartiya Senning "Imkoniyatlar nazariyasi"ning asosiy qoidalarini tizimli ravishda aks ettiradi va inson farovonligini baholashda an'anaviy daromadga asoslangan yondashuvlardan tubdan farq qiluvchi konseptual asosni ifodalaydi.

Birinci element — imkoniyatlar va funksionalliklar o'rtasidagi farq — ushbu nazariyaning metodologik negizini tashkil etadi. Bu yerda asosiy urg'u natijaga emas, balki insonning tanlash imkoniyatlariga beriladi.

Ikkinchi element — erkinlikka e'tibor — rivojlanishning asosiy maqsadi sifatida inson erkinligini kengaytirishni belgilaydi. Bu yondashuvga ko'ra, iqtisodiy o'sish o'z-o'zidan maqsad emas, balki insonlarning o'z hayotini mustaqil ravishda shakllantirish imkoniyatlarini oshirish vositasidir.

Uchinchi element — utilitarizmga tanqid — an'anaviy iqtisodiy nazariyalarning chegaralanganligini ochib beradi. Senning fikricha, daromad yoki subyektiv qoniqish darajasi farovonlikni to'liq aks ettira olmaydi.

To'rtinchi element — individual farqlarni hisobga olish — ijtimoiy siyosat ishlab chiqishda differensial yondashuv zarurligini asoslaydi. Insonlarning yosh, sog'liq holati, yashash hududi kabi omillar ularning imkoniyatlariga bevosita ta'sir qiladi.

Beshinchi element — kambag'allikni talqin qilish — ushbu nazariyaning eng muhim amaliy xulosalaridan biridir. Sen kambag'allikni faqat daromad yetishmovchiligi sifatida emas, balki insonning asosiy imkoniyatlardan mahrumligi sifatida izohlaydi.

Oltinchi element — ko'p o'lchovli farovonlik — farovonlikni kompleks baholash zarurligini ko'rsatadi. Bu yondashuvga ko'ra, inson hayoti sifati faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan emas, balki ijtimoiy va institutsional omillar bilan ham belgilanadi.

Xizmatlar sektori va kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlik

Nazariy jihatdan ushbu bog'liqlik quyidagi mexanizmlar orqali shakllanadi:

Bandlik mexanizmi. Xizmatlar sektori mehnat talabchan bo'lib, kam kapital bilan ko'p ish o'rni yaratadi.

Daromad mexanizmi. Xizmatlar orqali kichik biznes va o'zini o'zi band qilish imkoniyati oshadi.

Inson kapitali mexanizmi. Ta'lim va sog'liq xizmatlari uzoq muddatli kambag'allikni kamaytiradi.

Moliyaviy inkluziya mexanizmi. Bank va kredit xizmatlari orqali iqtisodiy faoliyat kengayadi.

Xizmatlar sektori rivojlanishining kambag'allikka ta'sirini baholash metodologiyasi kompleks yondashuvga asoslanib, o'z ichiga statistik, ekonometrik va tizimli tahlil usullarini oladi. Ushbu metodologiya quyidagi asosiy bosqichlardan iborat:

Tadqiqot konsepsiyasini shakllantirish. Mazkur bosqichda xizmatlar sektori va kambag'allik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik chuqur nazariy asosda tahlil qilinadi. Bu yerda xizmatlar sektori nafaqat iqtisodiy o'sishning tarkibiy qismi, balki aholi farovonligini bevosita shakllantiruvchi muhim institut sifatida talqin etiladi.

Ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish. Baholash jarayonida uch guruh ko'rsatkichlar tanlanadi:

- kambag'allik darajasini ifodalovchi indikatorlar;
- xizmatlar sektori rivojlanish ko'rsatkichlari;
- nazorat omillari (ta'lim, sog'liq, moliya, raqamli rivojlanish).

Xususan, Engel koeffitsiyenti kabi ko'rsatkichlar aholi farovonligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ekonometrik modellash

Kompleks yondashuv modeli. Tadqiqot quyidagi integratsiyalashgan model asosida amalga oshiriladi:

Poverty = f (Services, Employment, Human Capital, Infrastructure, Institutions)

Bu model xizmatlar sektorining kambag'allikka bevosita va bilvosita ta'sirini aniqlash imkonini beradi.

Ekonometrik tahlil. Taklif etilayotgan model:

$$\text{Povertyit} = \alpha + \beta_1 \text{Servit} + \beta_2 \text{Empit} + \beta_3 \text{Eduit} + \beta_4 \text{Healthit} + \beta_5 \text{Infrait} + \mu_i + \varepsilon_{it} \quad (1)$$

Bu yerda:

Serv - xizmatlar sektorining ulushi;

Emp - bandlik darajasi;

Edu, Health - inson kapitali ko'rsatkichlari;

Infra - xizmatlar infratuzilmasi;

β - koeffitsiyent;

i - obyekt (masalan: viloyat, tuman, uy xo'jaligi);

t - vaqt (masalan: yil, oy);

μ_i - i -obyektga xos bo'lgan, vaqt davomida o'zgarmaydigan omillar;

ε_{it} - i -obyektning t -vaqtdagi xatolik hadi (modelga kiritilmagan omillar ta'siri, o'lchash xatolari, tasodifiy (noaniq) o'zgarishlar);

Model panel ma'lumotlar asosida baholanadi, bu esa hududlar kesimida aniqroq natija beradi.

Indekslar asosida baholash

1) Multidimensional Poverty Index (MPI) - Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi tomonidan ishlab chiqilgan ushbu indeks quyidagilarni qamrab oladi: ta'lim, sog'liq, yashash sharoiti.

2) Inson taraqqiyoti indeksi (HDI)² – bu BMT Taraqqiyot Dasturi (BMTTD) tomonidan nashr etiladigan va inson taraqqiyoti bo'yicha maxsus ma'ruzalarning bir qismi sifatida foydalaniladigan dunyo mamlakatlari va mintaqalarida inson rivojlanishini tavsiflovchi kompozit ko'rsatkich bo'lib, ma'lum bir mamlakatda insonning turmush darajasini baholab beradigan mamlakatning uchta asosiy yo'nalish bo'yicha sog'liqni saqlash sifati, ta'lim va fuqarolarning daromad va yutuqlarini o'lchaydigan keng qamrovli ko'rsatkich hisoblanadi.

O'rtacha umr ko'rish indeksi: tug'ilishdagi o'rtacha umr ko'rish bilan o'lchanadigan salomatlik va uzoq umr ko'rish.

Ta'lim indeksi: maktab yoshidagi bolalarning o'rtacha maktab yoshi va o'rtacha katta yoshdagi maktab ta'limi bilan o'lchanadigan ta'limdan foydalanish imkoniyati.

Yalpi milliy daromad indeksi: xarid qobiliyati pariteti (XQP) bo'yicha AQSh dollarida aholi jon boshiga yalpi milliy daromad (YaMD) bilan o'lchanadigan munosib turmush darajasi.

Ushbu uchta o'lchov 0 dan 1 gacha bo'lgan raqamli qiymatlar sifatida standartlashtiriladi, ularning geometrik o'rtachasi 0 va 1 o'rtasidagi birlashtirilgan ITI ballidir. Keyin davlatlar ushbu ball asosida tartiblanadi.

Mualliflik yondashuvlari (original metodlar)

1) Xizmatlar mavjudligi indeksi (Service Accessibility Index – SAI)

$$\text{SAI} = \quad (2)$$

Bu yerda,

SAI - xizmatlar mavjudligi indeksi (Service Accessibility Index);

Edu - ta'lim (education);

Health - sog'liqni saqlash;

Finance - moliyaviy rivojlanish (kreditlar, daromadlar);

Digital - raqamli infratuzilma (internet, IT xizmatlar).

Bu indeks hududda xizmatlardan foydalanish imkoniyatini baholaydi.

2) Xizmatlar samaradorligi koeffitsiyenti

$$\text{Efficiency} = \quad (3)$$

Bu yerda,

Δ Poverty - kambag'allik darajasining o'zgarishi,

Δ Services - xizmatlar sektori rivojlanishidagi o'zgarish.

Bu ko'rsatkich xizmatlar rivoji kambag'allikni qanchalik kamaytirayotganini ko'rsatadi.

4. Modelni tekshirish va baholash. Natijalar quyidagi mezonlar asosida baholanadi:

koeffitsiyentlarning statistik ahamiyati (p-value);

modelning tushuntirish darajasi (R^2);

Hausman testi orqali model tanlash.

5. Natijalarni interpretatsiya qilish. Olingan natijalar asosida xizmatlar sektorining kambag'allikka ta'siri darajasi va qaysi omillar eng muhim ekanligi hududiy farqlar aniqlanadi

6. Amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Tahlil natijalariga asoslanib, xizmatlar sektorini rivojlantirish yo'nalishlari, kambag'allikni kamaytirish mexanizmlari va hududiy siyosat choralari o'ldirish uchun takliflar ishlab chiqiladi.

Mazkur yondashuv doirasida statistik usullar orqali dastlabki tendensiyalar va umumiy qonuniyatlar

2 https://uz.wikipedia.org/wiki/Inson_taraqqiyoti_indeksi



aniqlansa, ekonometrik modellashtirish yordamida xizmatlar sektori rivojlanishining kambag'allikka bevosita va bilvosita ta'sir darajasi miqdoriy jihatdan baholanadi. Bu esa oddiy kuzatishlardan farqli ravishda, sabab-oqibat bog'liqliklarini ilmiy asosda isbotlash imkonini yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sektori rivojlanishi kambag'allikni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Xususan, u bandlikni oshirish, daromad manbalarini kengaytirish hamda Amartya Sen ta'kidlaganidek, inson imkoniyatlarini kengaytirish orqali ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, xizmatlar sektorining ta'siri hududiy va infratuzilmaviy omillarga bog'liq holda farqlanadi.

Takliflar:

- xizmatlar sektorini, ayniqsa ta'lim, sog'liq va moliyaviy xizmatlarni ustuvor rivojlantirish;
- kichik biznes va o'zini o'zi band qilishni qo'llab-quvvatlash;
- raqamli infratuzilmani kengaytirish va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish;
- hududlar o'rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirishga qaratilgan maqsadli siyosat yuritish;
- xizmatlar samaradorligini oshirish uchun zamonaviy boshqaruv va innovatsion texnologiyalarni joriy etish.

Mazkur choralar xizmatlar sektori orqali kambag'allikni qisqartirish va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Amartya Sen. Development as Freedom. – New York: Anchor Books, 1999.
2. Gary Becker. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.
3. Theodore Schultz. "Investment in Human Capital." – American Economic Review, 1961.
4. World Bank. World Development Report 2022. – Washington, DC, 2022.
5. United Nations Development Programme. Human Development Report 2023/2024. – New York, 2024.
6. Organization for Economic Co-operation and Development. Promoting Inclusive Growth. – Paris, 2021.
7. International Labour Organization. World Employment and Social Outlook 2023. – Geneva, 2023.
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Amartya_Sen
9. https://en.wikipedia.org/wiki/Amartya_Sen
10. https://uz.wikipedia.org/wiki/Inson_taraqqiyoti_indeksi

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100